



Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar

Nematova Nilufar Qayimovna

NavDPI Milliy g'oya, manaviyat asoslari
va huquq ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Inson huquqlari sohasidagi umume'tirof etilgan standartlar va normalarning davlat ichki qonun hujjatlarida o'z aksini topganligi, ayni paytda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyati, ularning vazifalari kabi tushunchalar qamrab olingan.

Kalit so'zlar: BMT ustavi, deklaratsiya, xalqaro shartnomalar, huquqiy majburiyatlar, ratifikatsiya, parlament, xalqaro standart.

Birlashgan millatlar tashkiloti tashkil topishi bilan inson va shaxs huquqlarini himoya qilishni xalqaro tartibga solishning zamonaviy bosqichiga asos yaratildi.

BMT ustavida e'lon qilingan shaxsning huquqlarini hurmat va muhofaza qilish prinsiplari BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"da bevosita o'z aksini topgan. Deklaratsiya qabul qilingan kun – Xalqaro inson huquqlari kuni sifatida tarixga kirdi va dunyo davlatlari bu kunni bayram sifatida nishonlab kelmoqda.

Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida ko'pgina mamlakatlar inson huquqlari bo'yicha asosiy xalqaro shartnomalarning ishtirokchisi bo'lib qoldi. Bu hujjatlar inson huquqlari sohasidagi normalarni amalga oshirish yuzasidan huquqiy majburiyatlar yuklanganligi bois, mazkur sohaga oid normalar xalqaro ko'lamda amalga oshiriladigan majburiyatlar darajasiga



ko'tarildi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar ayrim shaxslarning o'zaro munosabatlarini hamda muayyan shaxslar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi. SHu sababli inson huquqlarini himoya etish va rag'batlantirish, eng avvalo, davlatning ichki vazifasi bo'lib, uning bajarilishi uchun javobgarlik har bir davlat zimmasiga tushadi.

Yurtimizda ham mustaqillikning ilk yillaridanoq ana shu javobgarlikni anglagan holda, eng ulug' maqsad, xalqimiz manfaatlari ko'zlangan islohotlarni amalga oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini to'la ta'minlash va ularni himoya qilishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Bu jihatlar Konstitutsiyamizda ham mustahkamlanib qo'yilgan. Jumladan, bosh Qomusimizning 13-moddasida O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligi belgilangan¹.

Inson huquqlarini milliy ko'lamda himoya qilish tegishli qonun hujjatlari yordamida, mustaqil sud hokimiyati, ijro etuvchi hokimiyat, shuningdek, demokratik institutlar tashkil etish yo'li bilan ta'minlanadi.

Inson huquqlari sohasida u yoki bu xalqaro shartnomani ratifikatsiya qilish bilan davlat bu shartnoma qoidalarini o'zining ichki qonun hujjatlariga kiritadi yoki undagi majburiyatlarni boshqacha yo'llar bilan bajarish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi. SHuning uchun ham inson huquqlari sohasidagi umume'tirof etilgan standartlar va normalar ko'pgina mamlakatlarning ichki qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Biroq muayyan huquqlar himoya etilishi to'g'risidagi qonun mavjud ekanligining o'zi yetarli emas. Mazkur qonun ana shu huquqlar samarali tarzda amalga oshirilishini kafolatlash uchun zarur barcha huquqiy vakolatlar va institutlar bo'lishini ta'minlab berishi ham kerak.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar deganda konstitutsiyaga va qonunga muvofiq Hukumat tomonidan tashkil etiladigan hamda vazifasi inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya etish deya belgilab qo'yilgan organlar tizimi tushuniladi. YAnada

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.:Ўзбекистон.2023.



aniqroq aytiladigan bo'lsa ular sud ham, norma yaratuvchi institut ham emas. Qoida tariqasida, ularga inson huquqlari xususida milliy va xalqaro miqyosda doimiy ravishda maslahat berib borish vazifa va vakolati beriladi. Bu maqsadlarga umumiy vositalar, muhokama etish va tavsiya berish orqali yoki alohida, yoxud bir guruh shaxslar tomonidan beriladigan shikoyatlarni ko'rib chiqish va hal etish yo'li bilan erishiladi.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar to'g'risidagi masala ilk bor BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi tomonidan 1946 yilda, ya'ni BMT Bosh Assambleyasi barcha millatlar va barcha davlatlar bajarishga intilishi lozim bo'lgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini qabul qilishdan ikki yil avval muhokama qilingan.

BMTning Inson huquqlari komissiyasining 1978 yil 18–29 sentyabr kunlari Inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya etish bilan shug'ullanuvchi milliy va mahalliy institutlar to'g'risidagi masalaga bag'ishlangan seminarida, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning tuzilishi va faoliyat olib borishiga doir rahbariy prinsiplar qabul qilingan. Ana shu hujjatga muvofiq inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar quyidagi vazifalarni bajarishlari zarur:

1) hukumatga, parlamentga va boshqa har qanday nufuzli organga inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya etish bilan bog'liq, shu jumladan, qonun hujjatlari va ma'muriy qoidalarga daxldor hamda inson huquqlari buzilayotgan har qanday hollar bilan bog'liq istalgan masalada tavsiyalar, takliflar va ma'ruzalar taqdim etish;

2) milliy qonun hujjatlari va amaliyot inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlar bilan muvofiqlashtirilishini hamda hamohang bo'lishini rag'batlantirish;

3) xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilishga ko'maklashish hamda xalqaro standartlar amalga oshirilishini kuzatib borish;

4) xalqaro hujjatlarga muvofiq taqdim etiladigan ma'ruzalarni tayyorlashga yordam berish;

5) inson huquqlari masalalari bo'yicha o'qitish va tadqiqotlar olib borishga taalluqli dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etish hamda inson huquqlari bo'yicha axborot tarqatish,



mazkur masalalardan jamoatchilik e'tiborini xabardor etib borish va ma'rifatchilik faoliyati vositalarini kengroq jalb qilish;

6) BMT bilan, mintaqaviy muassasalar hamda boshqa mamlakatlarning milliy institutlari bilan hamkorlik qilish.

Ayni paytda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan inson huquqlari bo'yicha milliy institutlardan Oliy Majlis Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Adliya vazirligi va boshqa bir qancha tashkilotlar samarali faoliyat olib borishmoqda.

Yurtimizda faoliyat yuritayotgan inson huquqlari bo'yicha mazkur milliy institutlar – mustaqillikning yutug'i, parlament va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ko'magiga ega, fuqarolarni ayrim mansabdor shaxslar, davlat organlarining o'z vakolatlarini har qanaqasiga suiiste'mol qilishlaridan himoya qiladigan, fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan, uni boshqarishni va demokratlashtirishni yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan demokratik institutlardir.

Ushbu institutlar O'zbekiston uchun inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish tizimida mustahkam o'rin egalladi. Buning sababi shundaki, ushbu demokratik institutlarning huquqlari va vakolatlari huquqiy asosda mustahkamlanib, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari bilan konstruktiv ruhda hamkorlik qilib kelayotganligi hamda ularning inson huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini takomillashtirishga ko'maklashayotganligidadir.

Ta'kidlash joizki, yangi demokratik institutlar bo'lgan Ombudsman va Milliy markazning shakllanishi va rivojlanishi mamlakatdagi islohotlar hamda modernizatsiya jarayonlari, jamiyatning barcha sohalaridagi demokratik o'zgarishlar, ayniqsa sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidagi o'zgarishlar bilan hamohang amalga oshiriladi. Shu bilan birga, fuqarolarning huquqiy madaniyatining yuksalishiga, buzilgan huquqlarini sud, huquqni muhofaza qiluvchi, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va boshqa davlat



INNOVATIVE PUBLICATION

Journal of Effective

Learning and Sustainable Innovation

Vol.1 №5 (2023). December

innovativepublication.uz



organlariga murojaat qilish orqali tiklashda hech qanday to'siqlarsiz amalga oshirilishida katta turtki bo'ldi.